

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
«5440100-FIZIKA» TA'LIM YO'NALISHI
IV-KURS 41-GURUH TALABASI
MEYLIYEV ALOVUDDINNING «TABIIY TOLALARING VOLT-
AMPER XARAKTERISTIKASINI O'RGANISH» MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIV ISHI

Ilmiy rahbar: dots. B. Hamzayev

Himoyaga tavsiya etilsin:

Fizika – matematika fakulteti

dekani: _____ prof. A.Q. Tashatov

«_____» _____ 2013 y.

QARSHI - 2013 Y.

MUNDARIJA.

Kirish.....	3-7
I . BOB. TABIIY TOLALARING ELEKTROFIZIKAVIY	
XUSUSIYATLARI HAQIDA TASAVVURLAR.....	8
§ 1.1. Polimer tolalarining xususiyatlari.....	8
§ 1.2. Polimer tolalarining molekulyar osti tuzilishi	8-10
§ 1.3. Tola sifatli polimerlarning molekulyar tuzilishi.....	11
§ 1.4. Paxta tolasining strukturasi.....	11-14
§ 1.5 Paxta tolasining mexanik va fizikaviy xususiyatlari.....	14-17
§ 1.6 Paxta tolalarining optik xususiyatlari.....	17-19
II. BOB. NAMUNA VA O'LCHASH USULLARI.....	20
§ 2.1. Paxta tolasida yod eritmasi diffuziyasini o'rganish	
usullari.....	20-21
§ 2.2. Paxta tolasini yod bilan ligerlash va namunalarni	
tayyorlash.....	21-22
§ 2.3. Paxta tolasining elektrofizikaviy xususiyatlarini	
o'rganish metodikasi.....	23-24
§ 2.4. Paxta tolasining volt-amper xarakteristikasini (VAX)	
o'lchash.....	25-30
III. BOB. YOD BILAN LIGIRLANGAN PAXTA TOLASINING	
FOTOELEKTRIK XUSUSIYATLARI.....	31
§ 3.1. Yod bilan ligirlangan «Diyor» paxta tolasining	
fotoelektrik xususiyatlarini o'rganish.....	31-35
§ 3.2. Yod bilan ligirlangan «Xazina» paxta tolasining yarim	
o'tkazgichli xususiyatlari.....	35-40
XULOSA.....	41
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	42-44

Kirish

Prezidentimiz I.Karimov tomonidan taqdim etilgan «O‘zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida» nomli asarida ta’kidlanganidek, Respublika oldida turgan muammolarni hal etishda ilm fanning rivoji katta ahamiyatga egadir.

Bu esa yuqori darajali malakali kadrlarni tayyorlash, kadrlarni tubdan yaxshilash ishi «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonunida nazarda tutilgandir. Buning uchun yosh avlodni ya’ni bizlar eng zamonaviy bilimlarga ega bo‘lmog‘imiz joizdir.

Hozirgi paytda butun jahon fiziklari oldida kashfiyotlar mohiyatini ochib berish ko‘zda tutilmoqda. Davlatimiz rahbari fan-texnikani rivojlantirishga alohida e’tibor bermoqdalar. Zamonaviy o‘ta murakkab, ko‘p bosqichli elektron texnika qurilmalari tuzilmalarini yaratish va ularni avtomatik boshqarishi sohasida etuk mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Elektronika yo‘nalishi uchun oxirgi paytlarda elektrofizik xususiyatlariga ega bo‘lgan polimer materiallarni olish intensiv ravishda rivojlanib bormoqda . Yarim o‘tkazgichli xususiyatlariga ega bo‘lgan polimer tolalar xususan paxta tolalariga (PT) asosan qiziqish ortib bormoqda . Ximiyaviy elementlar bilan ligirlangan va temperaturaga hamda yorug‘likka paxta tolalari (PT) yuqori sezgirlikka ega. Paxta tolasiga asoslangan holda termorezistorlar va fotosezgirlik elementlar yaratilgan. Ammo fizika bu jarayonlarni oxirigacha tushuntirib bera olmagan.

Shuni takidlash joizki, paxta tolalari mikrofibfillarni hosil qilayotgan orientatsiyalangan tartiblangan sillyuloza makromolekulalaridan tashkil topgan.

Undan tashqari paxta tolalari sturukturasi navbatma-navbat joylashgan kristall va amorf oblastlardan tashkil topgan. Paxta tolalarining (PT) elekrofizikaviy xususiyatlarini ilmiy o‘rganish o‘tkazuvchanlikning asosiy strukturasida mexanizmlarni ba’zi bir murakkab kristall-amorf xususiyatlarini o‘rganishga imkoniyat beradi.

Tekshiruvchilar ommasining bu oblastda kengligi (ko‘pligi) tabiiy tolali istemollarning elektrofizik xarakteristikalarini o‘rganishi va boshqarishi bularga asosan yangi diskret elementlarni yaratishlari masalaning aktualligini ifodalaydi.

Masalan, ximiyaviy yod elementi bilan paxta tolasini (pt) ligirlash asosiy qiziqishni kasb etadi. Ammo yod bilan ligirlangan paxta tolalarining elektrofizikaviy xususiyatlari kam o‘rganilgan. Tekshirishlarni rivojlantirish esa bu yo‘nalishda paxta tolalarida sodir bo‘ladigan har xil fizikaviy jarayonlarni tushuntirishga yordam beradi.

Polimerlar fizikasi fanining eng dolzARB yo‘nalishlaridan biri tolalarning ilmiy fundamental va amaliy muammolari bo‘lib, u tolalarning yaratilishi, tuzilishi va xossalari ni o‘rganishdek muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, bugungi kunda turli tolalar mavjud bo‘lib, ularning asosini tabiiy va sintetik polimerlar tashkil qiladi. Tolalarning hosil bo‘lishi murakkab fizik jarayon bo‘lib, uni amalga oshirish fizikaning termodinamika, gidrodinamika va kinetika bo‘limlarining ilmiy tamoyillariga asoslanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi paytda mikroelektronika o‘zining eng yuqori bosqichiga erishdi. Bu esa o‘z navbatida yangi muammolarni ilgari

surdi. Bularning asosiyalaridan biri elektron texnikaning integratsiyasini, ya’ni nanoelektronikani rivojlantirishdir.

Nanoelektronika ravnaqi, tolalar fizikasini mukammal rivojlantirishni taqozo etadi. Bundan kelib chiqqan holda XXI asrning birinchi yarmida nanostrukturalar rivojlanishining dolzarb muammolarini hal qilishning yo’llaridan biri tolalar fizikasi asoslarini o’rgatish o’ta muhimdir. Chunki tabiiy va kimyoviy tolalar nanostrukturaga egadir. Bunday strukturalarni o’rganishda, ulardagi fizikaviy jarayonlar va hodisalar namoyon bo’ladi.

Oxirgi paytda tabiiy tollalarning fizikaviy xossalari o’rganishga katta etibor berilmoqda, bunga sabab tabiiy tolalarda xususan, paxta tolalarida yarimo’tkazgichli xususiyatlar namoyon qilindi. Paxta tolalari ketma – ket amorf va kristall sohalarga ega bo’lgan mikrofibrill tarkibli sellyulozadan iborat. Bunday tabiiy tolalar yorug’lik, temperaturaga, kimyoviy elementlar bilan legirlanishga, bir o‘qli bosimga sezgirligi juda yuqoridir.

Paxta va ipak tolalari asosida termorezistorlar va fotosezgir elementlar yaratilgan. Lekin bunday tolalarda kuzatilayotgan hodisalarning fizikasi hozirgi paytda oxirigacha aniqlanmagan.

Bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish tabiiy polimer materiallarning elektrofizikaviy xarakteristikalarini boshqarish yo’llarini topish va ular asosida yangi diskret elementlar, xususan diodlar, tranzistorlar, yorug’lik diodlari, quyosh elementlari va boshqalarni yaratish imkoniyatlarini beradi .

Xususan, paxta tollari nanostrukturaga ega bo’lga holda tashqi tasirga (yorug’lik, temperatura, namlik va bosimga) sezgirligi yuqoridir. Uning xossalari

paxta navlariga qarab har – xil bo‘lishi xozirgi kunda aniqlangan. Paxta tolalarining fizikaviy xossalari, ayniqsa, elektrofizikaviy va optik xossalari juda kam tekshirilgan.

Yuqorida ta’kidlangandan kelib chiqan xolda ushbu bitiruv malakaviy ishida tabiiy tolalardan bo‘lgan paxta tolalarining elektrofizikaviy, optik xususiyatlarini va volt-amper xarakteristikasini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ydik.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbliji: Shuni takidlash joizki, paxta tolalari mikrofibrillarni hosil qilayotgan orientatsiyalangan tartiblangan sillyuloza makromolekulalaridan tashkil topgan. Undan tashqari paxta tolalari sturukturasi navbatma-navbat joylashgan kristall va amorf oblastlardan tashkil topgan. Paxta tolalarining elektrofizikaviy xususiyatlarini ilmiy o‘rganish o‘tkazuvchanlikning asosiy strukturasida mexanizmlarni ba’zi bir murakkab kristall-amorf xususiyatlarini o‘rganishga imkoniyat beradi.

Ishning maqsadi va vazifasi: Yod bilan ligerlangan paxta tolalari fizik - nuqtai nazardan ularning elektrofizikaviy xususiyatlari kam o‘rganilgan. Bu yo‘nalish bo‘yicha tekshirishlarning rivojlanishi paxta tolasida sodir bo‘ladigan har xil fizikaviy jarayonlarni tushuntirishda imkoniyat yaratadi. Yod bilan legirlangan paxta tolasining har xil sortlarida (navlarida) elektrofizikaviy xususiyatlari belgilangan qonuniyatlar asosida diskret elementlarni elektron texnikada qullanilishini xarakterlaydi.

- ”Diyor”, ”Xazina” va boshqa navli paxta tolasini, uni yod bilan legirlaganda elektr o‘tkazuvchanlik ta’sirini va volt-amper xarakteristikasini o‘rganish.

- Paxta tolasining elektrofizikaviy xususiyatlariiga tashqi muhitning (namlik, o‘ltrabinafsha) nurlanish ta’sirini o‘rganish.
- Yod bilan ligerlangan turli navli paxta tolasining volt-amper xarakteristikasini o‘lchashni o‘rganish.

BMI ilmiyligi va mohiyati: Tabiiy tolalarining elektrofizikaviy xususiyati va uning volt-amper xarakteristikasini o‘rganish asosiy yo‘nalishlardan biridir. Hozirda eng dolzarb mavzu bo‘lib, O‘zFA ilmiy tekshirish institutlarida, O‘zMU ilmiy tekshirish bog‘ida, Qashqadaryo tumanlarida amaliy ishlar olib borilmoqda. Olingan natijalar paxta tolasidan o‘tuvchi elektrik va fotoelektrik jarayonlar, hamda PT ni VAX ni o‘lchash usullari to‘g‘risidagi tasavurlarni kengaytiradi. Paxta tolasida sodir bo‘luvchi elektron jarayonlar haqida yangi ma’lumot olingan. Dunyoda birinchi marta tabiiy (paxta va ipak) tolalarining yarim o‘tkazgichli xususiyatlari namayon qilindi. Yangi ATM-1 paxta navi yaratildi va elektr xususiyatlari tekshirildi. Vlagomer va tranzistor ishlab chiqildi. 2 ta patent olindi.

Тадқиқот объекти: $R = 1\Omega$ li B7- 21 raqamli voltamper qurilmasi.

Тадқиқот методлари: Tadqiqotlarning nazariy qismi tabiiy tolalarining strukturasi, tuzilishi, xususiyatlarini nazariyasi metodlariga asoslangan. Natural tadqiqotlar zamonaviy o‘lchash vositalardan va hisoblash eksperimentidan foydalanish bilan eksperimental $R = 1\Omega$ li B7- 21 raqamli voltamper qurilmasida o‘tkazilgan.

Ishning tarkibi va hajmi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, 12 ta paragraf, xulosa, bibliografiya va ilovalardan iborat bo‘lib, jami 44 betni tashkil etadi.

I- BOB. TABIIY TOLALARING ELEKTROFIZIKA VIY XUSUSIYATLARI HAQIDA TASAVVURLAR.

Bizning hayotimizda tola va tola ko‘rinishidagi materiallar asosiy rol o‘ynaydi. Bular xalqning talab va ehtiyojlarini kiyinishda, meditsinada, texnikada, qishloq xo‘jaligida va boshqa sohalarda qondirib kelmoqda [1]. Polimer tolalarida (paxta va ipak tolalari) yarim o‘tkazgichning xususiyatlari aniqlangandan keyin elektron texnikada yangi diskret elementlar yasashga imkoniyatlar yaratildi [2,3,4-5]. Hozirgi vaqtida polimerlarning fizikaviy xususiyatlari bo‘yicha to‘plangan materiallar polimerlarning zamonaviy holatiga ta’siri haqidagi fikrlarni kengaytiradi.

1.1. Polimer tolalarining xususiyatlari .

Ximiyaviy polimerlarning strukturasi va xususiyatlari ularning olinish sharoitlari va metodlari eritmali termik ishlov berish va hokazo usullari bilan farq qiladi [1]. Tabiiy tolalarning (paxta, jun, pustloq tolasi) strukturalari boshqacharoq ko‘rinishda tuzilgan [6-7]. Talab darajasida hosil qilingan polimerlarning tuzilishi ximiyaviy polimerlarning olinishi metodlariga o‘xshash bo‘lib [8] kristallanishdagi joylashishi yuqori tartibli strukturaga ega bo‘ladi. Shuning uchun ximiyaviy va tabiiy tolalarni strukturalarini taqqoslashda nafaqat ularni o‘xshashligi va xususiyatlarining farqi, tushuntirib qolinmasdan balki tabiiy hamda (polimer) ximiyaviy tolalarning ba’zi bir xususiyatlarini o‘xshashligi yoki yaqinligini ham e’tiborga olish kerak. Tolalarning tuzilishi va strukturasini o‘rganishda temperatura, aralashmalar va mexanik ta’sirning davomiyligi bo‘lgan faktlar asosiy rol o‘ynaydi.

1.2. Polimer tolalarning molekulyar osti tuzilishi.

Polimer tolalarining molekulyar osti tuzilishiga pachka, sferolitlar, lomellyarli, fibrillyarli va boshqa shakllar kiradi [9-10]. Ammo polimerlarning orientatsion

joylashuvida fibrillyar tuzilishga ega bo‘lgan tolalar ustunroqdir (ahamiyatliroqdir). Fibrillyar tuzilishli tolalarning hosil bo‘lishi va fibrillyarlararo oblast tuzilishi haligacha aniq ma’lum emas.


Kristallanish darajasini har xil rentgen difraksiyasi infraqizil (IK) spektroskopiya, termoximik usullar yordamida namunalar zichligining kattaligi va boshqa parametrlarini aniqlash mumkin. Kristallanish darjasasi C_{kr} va tolaning zichligi kristall va amorf xududlarning zichligi bilan qo‘yidagicha bog‘langan.

$$\frac{1}{\rho} = \frac{C_{kr}}{\rho_k} + \frac{(1 - C_{kr})}{\rho_a} \quad (1.1)$$

Bu yerda ρ, ρ_k, ρ_a mos ravishda namunaning kristallik va amorf hududlarining sablostlarining zichliklari. Bugunga qadar orientirlangan polimerlar tuzilishi haqida hamma xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni hisoblashning imkoniyati yo‘q. Shuning uchun oddiy sxema bilan chegaralanamiz (1-rasm). 1-rasm. Polimerlar tuzilishining fizik va mexanik xususiyatlarini hisoblashda qo‘llaniladigan oddiy sxemasi.

- a) kristalli-amorfli polimerning qatlamlı strukturasi, taxlangan.
- b) qatlamlı bo‘lmagan polimer strukturasi tuzilishi taxlanmagan.
- v) tortilgan zanjirli kristall polimer l_a, l_k - kristall va amorf xududlari uzunligi l_{a+k} - katta davri.

Ximiyaviy tolalarning kundalang kesimini shakllarini tabiiy tola shakllari bilan taqqoslash ajoyibdir. Masalan paxta, jun, zig‘ir, pilla (2-rasm)



1 va 2-pacm. Tabiiy tolalarning kesimlari shakli.

a) Paxta, b) zig'ir, v) jun, g) oddiy pilla

1.3. Tola sifatli polimerlarning molekulyar strukturasi.

Molekulyar massa va molekulararo-massa taqsimoti tolalarning xususiyatlari va strukturaviy tuzilish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Molekulyar massaning o'lchamlaritolaning qattiqligiga, molekulaning uzunligiga bog'liq bo'ladi. Tabiiy tola ko'rinishidagi polimerlarning molekulyar massasi (masalan sellyuloza) juda qattiqdir. Masalan, sellyuloza paxtaning o'rtacha molekulyar massasi 0,5 dan 2,4 milliontadan tashkil topgan. Pilla ipagining va o'rgimchak uyasi tolasining shakllanishida molekulyar massa 275 ming dan 365 mingtagachani tashkil etadi. Bunda yuqori molekulyar massada yopishqoqlik juda tez ortadi bu esa strukturaning shakllanishi jarayoniga to'sqinlik qiladi.

1.4 Paxta tolasining strukturasi.

Quruq qayta ishlangan paxta tolasining sirti yuzasining asosiy harakteristikasi o'z o'qiga nisbatan o'tkir burchak ostida (20^0 - 30^0) tola atrofida spiral va parallel joylashgan qatlam va naysimon shakllardan iborat. Paxta tolasining (PT) shu joylarida qatlam va naysimon qismlari yo'naliishlari o'zgarishi mumkin. Qatlam va naysimon qism uzunliklari 10 μ dan ortiq qatlamlar orasidagi masofa va o'rtacha balandlik 5,5 μ bo'lib bundan tashqari tola sirtida kichik tirqishlar cho'qqi va chuqurchalar mavjudligi kuzatildi. Elektron-mikroskop yordamida har xil paxta tolalarining sirti xususiyatlari taqqoslanganda deyarli bir xil holatni kuzatish mumkin. Paxta tolsi yuzasida (sirtida) tola grafik o'xshashliklar o'stirish sharoitlari o'zgartirilganda ham o'zgarmasligi kuzatildi. Relefson yosh tolada fibrillning ikkita sistemasi borligini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi, birinchi qatlamdagi sirtda tola o'qiga fibrillar parallel, ichki qismida esa kundalang joylashgan. Birinchi qatlam tuzilishini matolarga tenglashtirish ya'ni bo'ylama fibrillar uzunligi asosga, ko'ndalangi esa arqonga o'xshaydi.


Qaralayotgan har bir qatlamdagi fibrillar parallel joylashmagan, ammo

o‘zaro kesishadilar yoki chatishib ketadilar, demak birinchi to‘sinqi ikkita turdan iborat deb qarash mumkin. Bu turlar qalinliklari har xil bo‘lib ba’zi biri qalinroqdir. Birinchi to‘sinq qalinligi $0,1 \mu$ dan ortmaydi (oshmaydi). Kling va Mal fibrilllar birinchi turdan ikkinchi tur yo‘nalishi bo‘yicha hosil qilgan burchaklarni aniqladilar. Fibrillning birinchi turi uchun bu burchak 20^0 - 25^0 ni, ikkinchi tur uchun 80^0 ni tashkil etadi. Shunday qilib tola o‘qidan birinchi qatlamdan 5^0 dan 70^0 gacha har xil burchaklarni hosil qiladi. Birinchi qatlam uchun Kling va Mal ishlari bo‘yicha fibrill qalinligi 100 - 200 \AA^0 ni tashkil etadi.

Shunday qilib paxta tolasining (PT) eletron-mikroskopik usuli yordamida yupqa sellyulozaviy fibrillning birinchi qatlamida mavjudligi va orientatsiyasi (shakllanishi) aniqlandi. Individual fibrillarning qalinligi 100 - 200 \AA^0 dan iboratdir. Demak, spirallarning (argon) og‘ish burchagi qalinligiga qarab o‘zgarishini rentgenografik usul bilan aniqlash mumkin.

Hozirgi vaqtga qadar tola strukturasi (tuzilishi) bilan uning asosiy elementlari bilan o‘zaro bog‘liqligi haqida savolga yagona qarashlar mavjud emas. Vergin ham mikrofibrilllar zinch joylashgan sillyuloza makromolekulalardan hosil bo‘lishligini aytib o‘tgan.

Boshqa bir qarashlar elementlarning tuzilishi molekulalararo bog‘lanishdan iborat ekanligini tushuntiradi. Fizikaviy o‘zaro ta’sir N-bog‘lanish (Van- Der Vaals kuchlari) va ximiyaviy bog‘lanishlar bo‘lishi мумкин. Shunday qilib [11] pishgan paxta tolasi (PT) uchta qatlamdan iborat, birinchi- ichki qatlam yoki o‘ramlar (3-pacm).



3-pacm. Paxta tolasining tuzilish sxemasi (a) rasm, uning kesilgan holatidagi sxemasi (b) rasm.

a) tashqi qatlam, 2-kletkali devor, 3-tola kanali b) birinchi devor, 2-ikkinchi devor, 3-fibrillalar aro amorf qatlam, 4-mikrofibrilla.


Sellyuloza o‘ramlaridan tashkil topgan. Bu tola kletkalarini himoya qatlami va qobiqni himoya qilish vazifasini bajaradi, ba’zan quyosh ultra binafsha nurlaridan va namlikdan saqlaydi, ikkinchi qatlam deyarli toza sellyulozadan, katakchali devordan iborat, uchinchisi – tola kanali yoki kovak.

Birinchi qatlam (o‘ram) o‘zining ximiyaviy tarkibi va tuzilishi nuqtai nazaridan asosiy sellyuloza qatlamidan farq qiladi bu esa o‘z navbatida paxta tolasining (PT) mustaqil ravishda bo‘linishiga asos bo‘ladi. Birinchi qatlamda tola sellyuloza – 54%, prototyena oqsil moddalari – 14% mum -8% va hokazoni tashkil etadi.

Ikkinci qatlam – birinchi qatlam orqasida joylashgan sellyuloza qatlamidir. U birinchi qatlamga nisbatan ancha qalin (5-10mkm) bo‘lib tolaning mexanik xususiyatlarini aniqlaydi. Ikkinci qatlamning kundalang kesimi sxematik ko‘rinishda (4-rasmida) ko‘rsatilgan. Xalqa shakldagi tuzilish ikkinchi qatlamda faqat normal rivojlanayotgan tolalarda kuzatiladi.

Ikkinci qatlamda uchraydigan fibrillar muhim vint qadami shaklida aniq orientirlangan (joylashgan) bo‘ladi.

Paxta tolasining birinchi va ikkinchi qatlamdagи sxematik ko‘rinishi (4-rasmida) tasvirlangan.



4-rasm. Paxta tolasining kundalang kesilgan sxemasi.

- 1- Ikkinci devor yo‘nalishi bo‘yicha o‘sishi.
- 2- Birinchi devor.
- 3- Ikkilamchi devor.

Sellyulozada bunday tekshirishlarni o‘tkazish paxta tolasining (PT) tartibli joylashgan (kristallchalar) va amorf xududida uning tuzilish modelini tuzishga asos yaratib berdi.

Sellyulozani molekula osti tashkil etuvchilari ayniksa qo‘yidagilardan iborat ekani muhimroq.

- 1.Molekula osti tuzilishida birinchi elementlari, ularning shakli va o‘lchamlari.
- 2.Birinchi tuzilish elementlarining o‘zaro ta’siri, molekula osti tuzilishining eng yukori satxi (ikkinchi) molekula osti tartibli joylashish shakli.
- 3.Tartibsiz joylashgan (amorf) xududi uning tabiatи va tartibli xududi bilan uzaro


boglikligi. Sellyuloza ustidagi bu tekshirishlar tola modelining strukturaviy tuzilishda tartibli joylashgan molekulalar (kristallitlar) va amorf xududlar mavjudligini asoslab berdi. Sellyulozaning elektron mikroskop [12] holatida ma'lumotlar taxlili keltirilgan. Shunday qilib juda yupqa struktura elementlari (SE) 80-120 Å atrofida tebranib (uzgarib) turadi. Ba'zan esa bu qiymat 150 \AA^0 ga teng va undan yuqori bulishi ham mumkin.

Demak, hozirgi vaqtida sellyuloza fibrill elementlarida (mikrofibrill) kenglik $60-80 \text{ \AA}^0$ elementlar fibrillar $20-40 \text{ \AA}^0$ ekanligi asoslab berildi.

Boshqa bir muallif, kuproq Dolmert har xil molekulalar osti bulinmalarining mavjudligini kursatmoqda.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda kuyidagicha xulosa qilish mumkin. Mavjud molekulalar osti bulinmalari va sellyulozaning (yupqa) nozik tuzilishi haqidagi nazariyalarning birortasi eksperimental strukturaviy xarakteristikalarini tuliq tushuntira olmaydi. Bu nazariyalar ba'zi birlari (Xirla, Renbi, Melyiler) u yoki bu haqiqatga yaqin ekanligini ifodalaydilar.

Bir ulchamli sellyuloza molekulalari zvenosi quyidagi formula bilan izohlanadi [13].



1.5. Paxta tolasining mexanik va fizikaviy xususiyatlari

Paxta tolasining (PT) mexanik xususiyatlari uning boshqa fizik xususiyatlariga nisbatan mukammalroq urganilgan.

Tashqi kuchlar. buralish, chuzilish, egilish va kesik joylar tolaning kuch quyilgan yo‘nalishi bo‘yicha defarmatsiyalanishini pasaytiradi. Paxta tolasining (PT) mexanik xususiyatlari juda keng bo‘lib ularni quyida keltirilgan asoslardan ko‘rish mumkin.

Shu narsa qaror topganki, har xil muhitlar paxta tolasining mexanik xususiyatlariga turlicha ta’sir qiladi. Masalan, hamma turdag'i ion hosil qiluvchi nurlanishlar paxta tolasining mexanik va ishlatilish xususiyatlarini pasaytiradi. Fizik holatlar (UB va gamma radiatsiya, elektr va magnit maydon, maydon ta’sir va x.k) ta’sir ettirilgan va sun’iy ravishda ustirilgan [2] paxta tolalari deyarli urganilmagan. Ultrabinafsha (UB) nurlar, gamma- radiatsiyal elektr va magnit maydonlari paxta tolasining rivojlanish (usish) davrida ta’siri uning ma’lum elektrofizikaviy xususiyatlarga ega bo‘lgan, ya’ni elektron struktura (tuzilish) larning taqsimlanishiga olib keladi.

Tabiiy tolalar (pt, ipak, jun, teri) uchun aniq (PT) tur (sort) lar olish uchun usish davrida muhitni uzgartirishga to‘g‘ri keladi. Bularni, ya’ni takidlanganlarni tekshirish uchun quyidagi eksperiment sharoitlari uzgartirilgan holda utkazilgan edi. Tuprog‘i bir xil ikkita yer maydonida 175 F paxta navi ekilgan edi. [2]. Birinchi yer maydonida oddiy kremniyda, ikkinchi yer maydonida esa ultrabinafsha (UB) nur bilan 15-20 minut davomida ushlab turildi. Paxta tolasining kuch bilan deformatsiya orasida egri chiziq tekshirilayotganda oddiy paxta tolasinikiga nisbatan (UB) nurlar bilan nurlantirilgan (PT) niki pastroqda yotishi tasdiqlangan. Bu shundan dalolat beradiki, ultrabinafsha (UB) nurlar bilan nurlantirilgan 175 F paxta navi kamroq deformatsiyalanadi ya’ni paxta tolasi yuqori ekspluatatsiya ishlatilish xususiyatlariga ega bo‘ldi. Umuman olganda ultrabinafsha (UB) nurlar ekilayotgan paxtalarda trans izomerollarni ortishiga va ichki hosil bo‘lish mexanizmlarining uzgarishiga π -bog‘lanishlarning kamayishiga, mos ravishda τ -bog‘lanishlarning ortishiga olib keladi [14]

Xona haroratida normal atmosfera bosimida paxta tolasining (PT) kinetik bog‘liqligi [15] da keltirilgan. Yoritilganlikning ortishi bilan fototok ortadi va 130-150 sekunddan keyin to‘yinadi. Yorug‘lik manbaining uchirilishi momentida

fototok reayaksiyasi uchraydi va qorong‘u tokka qadar yetadi, bu yerda fotoutkazuvchanlikning uzoq reayaksiyasi kuzatiladi. Statsionar rejimda fototokning yoritilganlikka bog‘liqligi chiziqli bog‘lanishga yaqindir. Bu bitiruv malakaviy ishda har xil harakatlarda yod bilan ligirlangan va doimiy ravishda yoritib turilgan paxta tolasining (PT) fotoutkazuvchanligi urganilgan. Haroratning ortishi bilan avval fototok ortib boradi. Keyinchalik haroratning ortishi uni kamayishga (da’vat etadi) sabab bo‘ladi.

Shunday qilib yuqoridagilarga asosan, paxta tolsi (PT) ni yaxshi yarimutkazgichli material deb hisoblash mumkin ya’ni haroratning ionlashtiruvchi nurlatishning ligirlovchi elementning kiritilishi paxta tolasining navini, o’sish va pishishini holatini elektr va fotoo‘tkazuvchanlikni o‘zgartiradi. Demak, paxta tolsi (PT) bazasida har xil fotorezistorlar, termorezistorlar va boshqa yarim o‘tkazgichli asboblar yasash mumkin [4,15].

Yod bilan ligirlangan 175 F paxta navi [8] ishlarida o‘rganilgan. Chuqr sathlarni $E = C_c - 0,8$ ev qayta zaryadlash natijasida hosil qilingan uzoq vaqtli reaksiya va fotoo‘tkazuvchanlikning infraqizil so‘nishi aniqlandi. Shunday qilib hozirgi davrgacha paxta tolasining (PT) yarimo‘tkazgichli xususiyatlari aniqlandi va mexanik xususiyatlari, struktura tuzilishi o‘rganildi.

Tabiiy polimer tolalar (jun, teri, ipak) ga nisbatan paxta tolasining (PT) fizika-mexanik xususiyatlari va tuzilishi e’tiborga loyiq darajada o‘rganilgan [10-11]. Paxta tolsi (PT) ishlab chiqarishning ko‘p tarmoqlarida keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun biz qo‘yida paxta tolasining (PT) asosiy tuzilishi va fizik xususiyatlariga to‘xtalamiz.


1.6. Paxta tolalarining optik xususiyatlari

PT lari optik xususiyatlari juda kup olimlar tomonidan elektron mikroskopda mukammal tekshirilgan. Uning natijalari [10] keltirilgan.

Hozirgi kunga kelib yetilib pishgan PT ning 97-98 % sellyulozadan tashkil topgan bo‘lib, tabiiy nanostruktura ekanligi aniqlangan, 1.2.1 punktga qarang.

Oxirgi paytda noorganik va organik materiallarning nanostrukturalar jadal sur'atlar bilan tekshirilmoqda. Bunga sabab nanostrukturali materiallar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, amaliy jihatidan foydalanishdir.

PT ning 6-12 mkm oralig‘idagi yutilishning IQ spektri tekshirilgan, natijada 6,95 va 11,20 mkm li yutilish polosasi intensivliklarini nisbati topilgan. Ma’lumki tartiblanish darajasi



6 – rasm. Har – xil navli paxta tolalarining fotolyumensensiya spektri. 1 – “ATM -1”, 2 – “Gulbahor”, 3 – “G‘olib”, 4 – “Oqqura”.

pasayishi bilan 6,95 va 11,20 mkm polasasidagi yutilish intensivliklari kamayadi. 6,95 mkm polosa CH_2 sellyulozaning yuqori tartiblangan sohasidagi CH_2 gruppasining 11,20 mkm gi polosa siyrak doirani tebranishlariga taaluqli bo‘lishi mumkin, moddaning tartiblangan qismi ortib borishi aytilgan nisbatning ortishiga olib keladi.

Optik mikroskopda PT ning tashqi ko‘rinishi o‘rganilgan [15]. Oxirgi paytlarda har xil navli PT ning fotolyumensensiya spektrini tekshirish PT ning strukturasining tuzilishini aniqlashga yordam berdi .

Har xil navli PT ning (“ATM-1”, Gulbahor, Oqddaryo, G‘olib, Qarshi-77, Buxoro-6, Oqjo‘ra, S-65-24) va ularning chigitlari tekshirilgan. 1.7 – rasmda ATM-1, Gulbahor, G‘olib, Oqjo‘ra navli PT ning fotolyumensensiya spektri keltirilgan.

Rasmda ko‘rinib turibdiki, har xil navli PT si fotolyumensetsiya (FL) spektri o‘ziga xos ekan, ya’ni bir-biridan farq qilar ekan.

Bu FL spektrida har xil joyda maksimumlar kuzatilgan. Masalan, ATM-1 navli PT FO‘ gi ikkita kuchli intensiv ($\lambda = 485,7 \text{ нм}$, $\lambda = 528,6 \text{ нм}$ да) va kuchsiz ($\lambda = 566,7 \text{ нм}$) maksimumlar kuzatilgan.

Shunday qilib [16] da PT ning FL si tekshirildi. FL formasi PT ning tipiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. PT ning spektrlari navlariga qarab har xil bo‘lishi aniqlandi va bu holat paxta navlarining diognastika qilish mumkin ekanligi isbotlandi.

II- БОБ. OBYEKT VA ULCHASH USULLARI.

2.1. Paxta tolasida yod eritmasi diffuziyasining xususiyatlarini o‘rganish.

Diffuziya hodisasi kinetik termoaktivotsion jarayon bo‘lib qattiq jismlar shulardan yarimo‘tkazgichlarning fizika-ximiyaviy xususiyatlarini namoyon etishda, aniqlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Demak, ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan yarimutkazgichli materiallarni olishda avvalo unga kiruvchi aralashmalar diffuziya parametrlari aniqlanadi. [14,15].

Bunday moddalarda diffuziya koeffitsiyenti temperaturaga eksponensial bog‘langan, temperaturaning ortishi bilan aralashmaning diffuziya koeffitsiyenti ortib boradi. Diffuziya jarayonida aktivatsiya energiyasi aniq qiymatlarga ega.

Sintetik polimerlar uchun diffuziya koeffitsiyenti juda batafsil urganilgan [16,17].

Ammo tabiiy polimerlar uchun o‘xhash usullar hamma vaqt ham ma’qul bo‘lavermaydi. Muallif [17] ning ishlarida diffuziya koeffitsiyentini vaqtning yarmi to‘yinishi bilan aniqlashning orginal metodi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$D = 0,04939 \frac{\ell^2}{t_{1/2}^{1/2}} \quad (2.1)$$


l – diffuziyalanadigan moddaning tarqalish chegarasi, t-polimer moddaning diffuziya tuyinishining vaqtiga $t_{1/2}$ - bu vaqtning yarmi.

Paxta tolasida (PT) yodning diffuziya koeffitsiyentini aniqlaydi, biz (2.1) tenglamadan foydalanganmiz. Namuna, paxta tolasining to‘plami bir-biriga parallel taxlangan va 3 mg oraliqda oxiri kleylangan holda olingan. Namunaning bir uchi yodning 10% li sirtidagi eritmasiga tola bo‘ylab diffiziyalangunga qadar kiritiladi. Ma’lum vaqt davomida yodning tarqalish masofasini ulchadik. Bu hodisa kinetikasini har xil tempiraturada diffuziyasini to‘yinish tezligini tekshirdik.

(2.1) Formula yordamida har bir kurilayotgan temperaturalarda paxta tolsi (PT) yodning diffuziya koeffitsiyentini hisoblangan.

$$\ell_g D = f(1000)/T \quad (2.2)$$

bog‘lanish chiziqli, shunday qilib T ning ortishi bilan paxta tolasida yodning diffuziya koeffitsiyenti eksponensial ravishda ortadi. Yodning diffuziya jarayoni davrida hisoblaganimizda uning 1,9 ev ga teng bo‘ldi. (5-pacm).



7-rasm. Yod diffuziya koeffitsiyentining paxta tolasida (pt) temperaturaga bog‘liqligi.

$t=13$ va 50^0 C temperaturalarda yodning diffuziya koeffitsiyenti mos ravishda $3 \cdot 10^{-11}$ va $3 \cdot 10^{-8}$ sm²/s qiymatlarga teng.


Shunday qilib, diffuziya jarayonida yod paxta tolasining ichki qismlariga kirib kvazi erkin elektronlar depokolizatsiyasi uchun sharoit yaratadi. Bu esa paxta tolasining (PT) elektrutkazuvchanligini bir necha tartibga oshiradi.

2.2. Paxta tolasini yod bilan ligirlash va namunalarni tayyorlash.

Tekshirish obyekt sifatida pishib yetilgan. «G‘olib», «Diyor» paxta tolasining (PT) navlari olingan. Paxta tolasini (PT) yod elementi bilan ligirlashdan oldin

